

Etnografiya tushunchasi va etnografizmlarning milliy realiyalar tarkibidagi o‘rni

*Muxitdinova Xadicha Sabirovna,
x.muxitdinova@uzswlu.uz*

Professor

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

*Sattorova E‘zoza Muzaffar qizi
sattorovsezoz@gmail.com*

Magistrant

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli etnik guruhlar, ularning kelib chiqishi, turmush tarzi va qadriyatlarini o‘rganishga qaratilgan etnografiya va madaniyatning asosiy tushunchalari muhokama qilinadi. Etnografiya ilmiy soha sifatida Evropada 19-asrda paydo bo‘lgan, ammo ilgari sayohatchilar va tadqiqotchilar turli xalqlarni hujjatlashtirishdan boshlangan. Maqolada, shuningdek, etnografiya va antropologiya o‘rtasidagi munosabatlar ta’kidlanib, antropologiya insonning biologik xususiyatlariga e’tibor qaratsa, etnografiya madaniy jihatlarni o‘rganadi. U “voqelik” tushunchasiga kirib, ularni millatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tilga singib ketgan madaniy elementlar sifatida belgilaydi. Maqolada jamiyatning madaniy amaliyotini tushinishda ishtirokchilarni kuzatish kabi etnografik usullarning roli ta’kidlangan. Bundan tashqari, etnografiya va Madaniyatshunoslik o‘zbek Navro‘z bayrami yoki ijtimoiy marosimlar kabi o‘ziga xos an’analarni lingvistik tahlil orqali tushinishga qanday hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: etnografiya, madaniyat, realiyalar, an’ana, metodologiya, qatnashish orqali kuzatish metodi.

Понятие этнографии и роль этнографизмов в составе национальных реалий.

*Мухитдинова Хадиджа Сабировна
x.muxitdinova@uzswlu.uz*

Профессор

Узбекский государственный университет мировых языков

*Сатторова Эъзоза Музаффаровна
sattorovsezoz@gmail.com*

Магистрант

Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые концепции этнографии и культуры, акцентируя внимание на изучении различных этнических групп, их происхождения, образа жизни и ценностей. Этнография как научная дисциплина развивалась в Европе с XIX века, но ее начала берут отсчет с работ путешественников и исследователей, которые описывали разные народы. В статье также подчеркивается связь между этнографией и антропологией, объясняя, что, в отличие от антропологии, которая изучает биологические особенности человека, этнография исследует культурные аспекты. Обсуждается понятие “реалии”, которое включает в себя культурные элементы, отраженные в языке и показывающие уникальные характеристики нации. В статье также подчеркивается роль этнографических методов, таких как наблюдение с участием, в понимании культурных

практик общества. Рассматриваются традиции, такие как узбекский праздник Навруз, через лексический анализ.

Ключевые слова: этнография, культура, реалии, традиция, методология, метод наблюдения с участием

The concept of ethnography and the role of ethnographisms within national realities

Mukhitdinova Khadija Sabirovna

x.muxitdinova@uzswlu.uz

Professor

Uzbekistan State World Languages University

Sattorova E'zoza Muzaffarovna

sattorovsezoza@gmail.com

MA student

Uzbekistan State World Languages University

Annotation. This article discusses the key concepts of ethnography and culture, focusing on the study of various ethnic groups, their origins, lifestyles, and values. Ethnography, as a scientific field, emerged in Europe during the 19th century but began earlier with travelers and researchers documenting different peoples. The article also highlights the relationship between ethnography and anthropology, explaining that while anthropology focuses on human biological characteristics, ethnography examines cultural aspects. It delves into the concept of "realities," defining them as cultural elements embedded in language that reflect the unique characteristics of a nation. The article emphasizes the role of ethnographic methods, such as participant observation, in understanding a society's cultural practices. Furthermore, it illustrates how ethnography and cultural studies contribute to understanding specific traditions, such as the Uzbek Navruz holiday or social rituals through linguistic analysis.

Key words: ethnography, culture, tradition, methodology, participant observation method.

Etnografiya – turli xalqlarning etnik birliklari, ularning kelib chiqishi, turmush tarzlari, qadriyatlarini, moddiy va ma'naviy hayotidagi taraqqiyot darajalarini o'rganuvchi maxsus fan sohasi hisoblanadi. Etnografiya xalqlarning ijtimoiy hayot tarzi, madaniyati, turmush hayoti, urf-odatlarini, qadriyat va an'alarini chuqur tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, turli xalqlarning bir-biridan farqlanuvchi jihatlari va ularni bog'lab turadigan umumiy xususiyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu fan jamiyatning ma'naviy merosi va milliy o'ziga xosligini saqlash va ularni kelajak avlodga yetkazish jarayonida ham ahamiyatlidir.

Manbalarga ko'ra, etnografiya atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "ethnos" (xalq) va "grapho" (yozmoq) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, "xalqlarni tasvirlash" ma'nosini anglatadi (Korotov, 2006). Ya'ni, u xalqlarning hayot tarzini yozib hujjatlashtirish va tahlil qilish bilan bog'liq fan sifatida shakllangan. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida qayd etilishicha, etnografiya hozirgi kunda mavjud bo'lgan etnoslarning kelib chiqishi, ularning shakllanishi, etnik tuzilishi va joylashuvi, madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy voqealar hamda jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Shu boisdan, etnografiya faqat o'tmishni tadqiq qilibgina qolmay, hozirgi zamonaviy jamiyatning etnik va madaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun ham muhim hisoblanadi.

Etnografiya fani turli xalqlarning hayot tarzi va qariyatlarini tasvirlash orqali ularning madaniy merosini saqlab qolishga, avloddan avlodga yetkazishga ham xizmat qiladi. Masalan, o'zbek xalqining qon-qniga singib ketgan mehmondo'stlik an'analari, liboslaridan *do'ppilar* va *atlas* matolari bilan bog'liq milliy kiyimlari, *Navro'z*, *sunnat to'yi*, *beshik to'yi* kabi bayram va marosimlari etnografiyaning o'rganish ob'ektlaridan biridir. Shuningdek, qariyb 85.000 so'zni oz' ichiga qamrab

olgan 5 tomlik O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham turli xil etnografizmlar qayd etilgan bo‘lib, ular o‘zbeklarning milliy hayot tarzi va turli sohalarida ishlatiladigan terminlar va tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda etnografik tadqiqotlar turli usullar, jumladan, kuzatish, suhbat, tarixiy va arxiv manbalarini tahlil qilish orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, turizmni rivojlantirish va antropologik izlanishlarda etnografik ma‘lumotlardan keng foydalanilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanishi natijasida uy-mehmonxona modeli ommalashib bormoqda. Bu turdagi mehmonxonalarda sayyohlar mahalliy aholining turmush tarzi va urf-odatlarini bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayon etnografik tadqiqotlar olib borish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Garchi etnografiya Yevropada XIX-asrdan boshlab mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, uning dastlabki namunalari XVII-asrda paydo bo‘lgan. Ushbu davrda tadqiqotchilar va sayohatchilar turli xalqlarga qilgan safarlari davomida o‘z taassurotlari va kuzatuvlarini yozib qoldirganlar. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, etnografiya antropologiya fani bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har ikkala fan ham inson va jamiyat haqida ma‘lumotlarni yig‘ish va o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Biroq, antropologiya insonning tabiiy va biologik xususiyatlarini tadqiq etib o‘rgansa, etnografiya uning madaniy jihatlariga e’tibor qaratadi. Aslida, tabiiy va madaniy omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, masalan, Markaziy Osiyo xalqlari kiyim-kechaklari, ularning shakli va rangi iqlim sharoitlariga moslashgan. O‘zbeklarning milliy *chopon* va *do‘ppilari*, arablarning bosh kiyimlari – *ghutra*, *imama*, meksikaliklarning *panomalari* nafaqat madaniy xususiyatlarni aks ettiradi, balki o‘sha mamlaktning iqlimiga moslangan buyumlar hisoblanadi.

Darhaqiqat, geografik sharoitlar ham har bir xalqning hayot tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tog‘li va tog‘oldi hududlarida yashovchi xalqlarning turmush tarzi va madaniyati vodiy va vohalarda yashovchilarnikidan sezilarli farq qiladi. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar – qozoqlar (*kiyiz uy*), qirg‘izlar (*g‘iyö*), turkmanlar (*boz uy*) – yashash joylarini istalgan vaqtda yig‘ishtirib ko‘chirishga qulay bo‘lgan o‘tovlarda yashaydi. Ularning iqlim sharoitiga moslashgan ko‘chmanchi turmush tarzi, ovullari va lo‘lilarning shunga o‘xshash urf-odatlarini (*romani shab- lo‘li qonunlari*, *bo‘yi to‘lash – kelinning oilasiga to‘lov to‘lash*) ularning etnografik xususiyatlarining keng ko‘lamda mavjudligini ifodalaydi. Bu esa geografik omillarning madaniyatga ta’sirini yaqqol namoyon qiladi. Shu bilan birga, ushbu etnografik ma‘lumotlarning til orqali ifodalanishi etnografizmlar qatlamini shakllantiradi va ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra *milliy realiyalar* deb ataluvchi leksik qatlam tarkibiga kiradi.

O.S. Axmanovanning izohicha, “realiyalar an’anaviy grammatikada tashqi tilshunoslik tomonidan muayyan mamlakat davlat qurilishi, tarixi va mazkur xalqning madaniyati, til sohiblarining boshqa tillar bilan aloqalari va hokazolarni tilda aks etishi nuqtai nazaridan o‘rganiladigan turli-tuman omillardir” (Axmanova, 1966). “Realiya” so‘zi lotin tilida ko‘plik sondagi otlashgan sifat *realis-e* so‘zidan olingan bo‘lib, “buyumga xos, mavjud” degan ma’noni bildiradi. G.D. Tomaxinning izoh berishicha, realiyalar – bu “muayyan millat va xalqlargagina taalluqli moddiy madaniyat buyumlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy qahramonlar, afsonaviy mavjudotlar va hokazolarning nomlaridir” (Tomaxin, 1997). Ye. I. Shumagerning ta’kidlashicha esa, birinchi qarashda mutlaqo odatiy, boshqa tilga oson tarjima qilinadigan leksik birliklardek ko‘rinsa-da, ular milliy madaniyatning boshqa xalqlarda uchramaydigan o‘ziga xos jihati yuzasidan qimmatli ma‘lumot berishi bilan alohida ahamiyatlidir (Shumager, 1990).

Realiyalarning tilda to‘g‘ri anglanishi va tarjimasini etnografik bilimga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda etnografiyaning o‘rni ahamiyatlidir. Chunki u xalqning madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi va ijtimoiy hayotini o‘rganadi. Til esa ushbu madaniyatning ifodasi sifatida xizmat qiladi. Etnografik realiyalar xalqning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi til birliklari hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “soya” so‘zi ma‘lum bir ijtimoiy tuzilmani ifodalaydi va boshqa tillarda aynan unga mos keladigan tushuncha bo‘lmasligi mumkin. (Gemilyov, 1967).

Biroq, realiya – soʻzlar va realiya – buyumlarni bir-biridan farqlash muhim. Realialarning asosiy xususiyati shundaki, ular moddiy jihatdan mavjud boʻlgan narsa va buyumlar bilan bogʻliq. Yaʼni, realiyalar – moddiy madaniyat predmetlaridir (Tomaxin, 1997).

Soʻnggi yillarda tilshunoslikda realiyalar atamasi bilan bir qatorda lingvokulturema va ekzotizm kabi tushunchalardan keng foydalanilmoqda. Ekzotik leksika yoki ekzotizmlar – boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar boʻlib, ular “begona” realialarni ifodalaydi va boshqa xalqlarning turmush tarzi hamda madaniyatini aks ettiradi. Maqsadi jihatidan, yaʼni mahalliylikni ifodalashi nuqtai nazaridan, ekzotizmlar etnografizmlar yoki regionalizmlar bilan yaqinlikka ega. Lingvistik adabiyotlarda bu ikki atama koʻpincha sinonim sifatida qoʻllanadi. Biroq, kelib chiqishiga koʻra, etnografizmlar asosan tub soʻzlardan va shevaga oid leksik birliklardan (dialektizmlardan) iborat boʻlsa, ekzotizmlar aksincha, adabiy tilning passiv leksik qatlamiga kiradi. Realialarning madaniyatshunoslik va antropologiya sohalaridagi oʻrni ancha chuqurroqdir, chunki ular millatning milliy oʻziga xosligini, turmush tarzini va anʼanalarini aks ettiruvchi lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir xalqning madaniyati va urf-odatlarini oʻziga xos soʻzlar va tushunchalar orqali ifodalanadi. Masalan, oʻzbek xalqidagi *koʻpkari, sumalak, kelin salom, doʻppi* kabi tushunchalari bu xalqning qadimiy bayramlari va marosimlari nomlarini ifodalash bilan aks ettiriladi. Ushbu soʻzlar faqat til birligi boʻlibgina qolmay, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlari haqida maʼlumot beradi. “Navroʻz” bayrami esa oʻzbeklarning yil boshida nishonlaydigan qadimiy bahor bayrami nomini ifodalab, u inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlikni, yangilanishni va yangi yilning boshlanishini aks ettiradi. Shu sababdan, bu realiyani boshqa tillarga tarjima qilinganda uni oʻz mazmunida saqlaydigan maʼnaviy va madaniy maʼnosini yoʻqotmaslikka ahamiyat qaratish zarur.

Etnografik realiyalar xalqning turmush tarzi, anʼanalari va madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklardir. Masalan, *doʻppi* milliy bosh kiyimi sifatida nafaqat kiyinish madaniyatini, balki oʻzbekning milliylikka, sanʼatga, hunarmandchilikka boʻlgan eʼtiborini ham ifodalaydi. *Samarqand noni* esa nafaqat taom, balki ijtimoiy hayotda muhim oʻrin tutuvchi elementlardan biri sifatida qaraladi. Chunki u mehmondoʻstlik, oilaviy qadriyatlar va pazandalik anʼanalarining uygʻun bir qismi sanaladi. Bu kabi realiyalar til orqali madaniy kodlarni yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Shu oʻrinda, oʻzbek va ingliz tillaridagi oʻxshash realialarni taqqoslaydigan boʻlsak, *samarqand noni* kabi *english breakfast* ham ingliz xalqining oshxona madaniyati va turmush tarziga oid muhim etnografizm hisoblanishini qayd etib oʻtishni lozim deb topdik.

Etnografiya boshqa ijtimoiy fanlar – sotsiologiya, tarix, antropologiya, madaniyatshunoslik va geografiya fanlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ushbu fanlar etnografiya fanining muayyan sohasini kengaytirishga va chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi. Dastavval, etnografiya tarix fani bilan chambarchas bogʻliq va tarixiy etnografiya xalqlarning bir necha ming yilliklarga borib taqaluvchi oʻtmishlarini tiklashga xizmat qiladi. Masalan, qadimgi yunon va rimliklarning bayramlari va ushbu qadimgi xalqlarning diniy marosimlari haqida maʼlumotlar tarixiy manbalarda qayd etilgan boʻlsa, etnografiya bu maʼlumotlarni turli xalqlarning zamonaviy urf-odatlarini bilan taqqoslash orqali oʻrganadi (Bromley, 1973).

Oʻzbek xalqining *koʻpkari* oʻyinini bunga yaqqol misol qilib keltirishimiz mumkin. *Koʻpkari* oʻzining tarixiy ildizlari bilan bir necha asrlik davrga borib taqaladi. Bunga nafaqat tarixiy manbalarda qolaversa, badiiy adabiyotda xususan, Togʻay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asari surxon vohasida bu oʻyin anʼanaviy qadriyat ekanligiga isbot boʻla oladi: “*Koʻpkari boshlangan edi. Odamlar ot ustida goʻyo shamolday uchishardi. Har kim oʻz kuchini sinash, gʻolib boʻlish ishtiyoqida edi*” (Togʻay Murod, 1993). Etnografiya fani nuqtai nazaridan bu bayramning zamonaviy nishonlanish shakllari, uning ahamiyati va elementlarini oʻrganish mumkin. Masalan, Navroʻzdagi *sumalak tayyorlash* marosimi etnografik nuqtai nazardan xalqning anʼanaviy jamoaviy mehnat va oʻzbek xalqining mehmondoʻstlik, mehr-oqibat, birodarlik va ahillik tamoyillarini aks ettiradi (Tursunov, 2000).

Tarixiy realiyalar xalqning ma'lum bir davrda yashagan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi so'zlardir. Ular ma'lum bir davrning madaniy va iqtisodiy rivojlanishini o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, tarixiy realiyalar ko'pincha xalqning ijtimoiy tuzilishini ham aks ettiradi. Masalan, o'rta asrlarda mavjud bo'lgan va o'z navbatida ijtimoiy tabaqalanishni aks ettiruvchi so'zlar: *amir*, *boshqir*, *o'lponchi*, ingliz jamiyatida esa *lord*, *baron*, *duke* (gersog), *duchess* (gersogina), *knight* (ritsar) va hokazolar. Bu kabi realiyalar faqat lingvistik tushuncha bo'libgina qolmay, balki tarixiy davrning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasi haqida ham ma'lumot beradi. Ularni tarjima qilishda esa ularning o'sha davrda qanday ma'nolarni ifodalaganligini hisobga olish zarur. Shu bois, S. Vlasov va S. Florinning tadqiqotlarida realiyalarni o'rganish antropologik ma'lumotlar bilan birga olib borilishi kerakligi ta'kidlanadi. Ular realiyalarning milliy o'ziga xoslikni aks ettirishi va xalqning turmush tarzini ko'rsatishdagi ahamiyatini qayd etadi: "Antropologik tadqiqotlar milliy realiyalarning madaniy va ijtimoiy muhitdagi rolini o'rganishda asosiy vositadir" (Vlasov & Florin, 1980).

Abu Rayhon Beruniyning hind xalqining an'ana va urf-odatlarini haqida yozgan mashhur "Hindiston" asarini, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari etnografiya fanining rivojlanishi uchun eng dastlabki noyob namunalar manbai hisoblanadi. Xususan, Beruniy "Hindiston" asarida hindlarning madaniy hayot tarzini boshqa xalqlar bilan taqqoslagan va qadimgi hind madaniyatiga xos bo'lgan *kasta* tizimini qat'iy ijtimoiy tabaqalanish sifatida ta'riflab, *braxmanlar* (ruhoniylar) va *shudralar* (qullar) o'rtasidagi farqlarni, hindlarning astronomiya va matematika sohalaridagi yutuqlarini, masalan, Quyosh va Oy tutilishlari, yulduzlar harakati bo'yicha ma'lumotlarni keltirib o'tgan va hind xalqining ilmiy ixtirolarini ham aks ettirgan. Asarda hindlarning urf-odatlarini haqida, ularning diniy marosim va xudolarga, Ganga daryosiga sig'inish odatini tasvirlab, bu ularning hayot tarzidagi diniy va maishiy ahamiyatini yoritadi. Ularning Ganga daryosida cho'milishni poklanish deb tushunishlari diniy e'tiqod deb bilishlarini "Gangaga eng yaqin joylashgan *ashram* larda brahman rohiblari yashab, ruhiy poklanish marosimlarini boshqaradilar va bu joylarni ziyorat qilish muqaddas hisoblanadi" deya ta'riflaydi va boshqa xalqlarda ham shunga o'xshash urf-odat mavjudligiga misol keltiradi (Beruniy, 1957).

"Hindiston" asari faqatgina qadimgi davr hind xalqi madaniyatini hujjatlashtirish bilan cheklanmay, ushbu xalqning turmush tarziga xos urf-odatlarini boshqa xalqlar turmush tarzi bilan taqqoslash, universal madaniy xususiyatlarni aniqlashga ham xizmat qiladi. Jumladan, hindlarning xudolarga sig'inishi va o'zbek xalqining ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarini hurmat qilish odati o'rtasidagi umumiylikni taqqoslash mumkin. Demak, ushbu asarda berilgan ma'lumotlar yordamida nafaqat tarixiy va etnografik ma'lumotlar balki turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Bundan tashqari, butun jahon adabiyoti hamda madaniyati uchun nodir manba hisoblanadigan, o'zbek tilidagi ilk memuar-yodgorlik asar hisoblanadigan "Boburnoma" asari Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub bo'lib, ushbu asar faqatgina tarixiy yoki adabiy manba emas, balki o'sha davrning etnografik xususiyatlarini yorituvchi noyob yodgorlik ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarda turli xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar yoritilgan. Z.M. Boburning Hindiston, Afg'oniston va Movarounnahr xalqlari haqidagi kuzatuvlari madaniyatlararo tadqiqotlar uchun o'ta qimmatli va muhim manbaadir. Xususan, Bobur to'y marosimlarida qatnashgan hindlarning o'ziga xos kiyinish tarzi haqida ham ma'lumot berilgan. Xususan, ayollar sari kiygan holda bo'yinlari va bilaklarini turli zeb-ziynat bilan bezashgani, erkaklar esa maxsus *turbanda* ekanini yozadi. Ushbu kiyinish tarzi ularning urf-odati va madaniy qadriyatlarini ifodalashini ta'kidlaydi. Shu jumladan, *sari* (ayollarning milliy libosi, to'y va bayramlarda kiyiladigan mato kiyim), *turbanda* (turli rang va naqshlar bilan bezatilgan hind erkaklarining bosh kiyimi), *ghagra* (odatda bayram va tantanalarda kiyiladigan hind ayollarining uzun yubkasi), *choli* (ayollar kiyadigan sari bilan birga ishlatiladigan yengsiz kiyim), *mangal sutra*

(ayollar turmush qurishidan soʻng taqadigan muqaddas marjon), *sindur* (ayollarning peshonalariga suradigan qizil kukun, u turmush qurganligini ifodalaydi) (Bobur, 2002).

Etnografiya metodologiyasi jamiyat va uning aʼzolarining kundalik turmush tarzlari va ularga xos, takrorlanmas qadriyatlarini oʻrganish, tadqiq qilishga asoslangan boʻlib, ularning madaniy muhitida oʻziga xos boʻlgan turli xil tushunchalar va anʼanalarni aniqlash mumkin. XIX asr oxirlariga kelib, Bronislaw Malinowski va Frans Boass kabi tadqiqotchilar etnografiyani mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlantirishga oʻz hissalarini qoʻshganlar. Bronislav Malinowskining olib borgan tadqiqotlari hozirgi zamonaviy etnografiya faniga poydevor boʻlib xizmat qilgan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Tadqiqotlar davomida etnografiya sohasi orqali xalqlarning madaniyatini faqatgina ularga xos tashqi koʻrinishlar orqali emas, balki ijtimoiy tuzilma, funksiyalar, normativ munosabatlar ham orqali tushunish ham mumkinligi taʼkidlanadi. Uning fikricha, madaniyatning haqiqiy mazmunini aniqlash uchun jamiyat hayotining chuqur qatlamlarini oʻrganish zarur. Ushbu soha doirasida, Malinowski oʻzining mashhur “qatnashish orqali kuzatish” (participant observation) metodini qoʻllagan boʻlib, bu usul orqali tadqiqotchilar biror jamiyatning bevosita bir qismi sifatida, ularning hayoti va madaniyatini chuqur tushunishga harakat qilishgan (Malinowski, 1922). Oʻzbekistonda ham bugungi kunda koʻplab uy-mehmonxonalarning amal qilayotgani, koʻplab sayyohlarning aynan shunday mehmonxonalarda turib, xalq hayoti bilan yaqindan tanishish niyatida, marosimlar va anʼanalarda shaxsan ishtirok etayotgani buning yorqin misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmanova, O.S. (1966). *Tilshunoslik terminlarining lugʻati*. Moskva: Sovet Ensiklopediyasi.
2. Beruniy, A.B. (1957). *Hindiston*. Toshkent: Fan.
3. Bobur, Z.M. (2002). *Boburnoma*. Toshkent: Sharq.
4. Bromley, Y.V. (1973). *Etnografiya asoslari*. Moskva: Nauka.
5. Gumilyov, L.N. (1967). *Etnogenez i biosfera Zemli*. Moskva: Nauka.
6. Korotov, A.B. (2006). *Vvedenie v etnografiyu*. Moskva: MGU.
7. Malinowski, B. (1922). *Argonauts of the Western Pacific*. London: Routledge.
8. Murod, T. (1993). *Ot kishnagan oqshom*. Toshkent: Sharq.
9. Shumager, E.I. (1990). Fonovaya leksika, yeyo svoeobraziye i svyazʼ s kulturoy. In *Leksika i kultura* (p. 124). Tver: Tverskoy gosudarstvenny universitet.
10. Tomakhin, G.D. (1997). Realii v yazyke i kulture. *Zh. IYASH*, 3, 13-18.
11. Tursunov, A. (2000). *Oʻzbek xalqining etnografiyasi*. Toshkent: Fan.
12. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). *Natsional'nye realii i ikh perevod*. Moskva: Vysshaya shkola.